



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

No8
MAXSUS SON



BAKALAVR TALABALARINIG MAQOLALARI TO'PLAMI



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Elektron nashr. 98 sahifa.

2025-yil noyabr

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Viktorovna, Candidate of Economic Sciences (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 28-fevraldagi
333/5-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

MEHMONXONA KORXONALARIDA INNOVATSION LOYIHALARNI AMALGA OSHIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	10
Erkaboyeva Jasmina Safarali qizi, Ochilova Hilola Farmonovna	
FAULT TOLERANCE AND SELF-HEALING IN IOT-ENHANCED P2P SYSTEMS	15
Ibrokhimkhujja Rikhsikhujjaev, Mohit Bhandwal	
BIZNES BOSHQARUVIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI.....	22
Ikromov Boisxon Bahodir o'g'li, Ozodbek Musayev	
BIOLOGIYA FANINI O'QITISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA VIRTUAL LABARATORIYADAN FOYDALANISHNING SAMARADORLIGI.....	27
Turayeva Sabrina Kamoliddin qizi, Qodirov Farrux Ergash o'g'li	
YASHIL LOGISTIKA VA TRANSMILLIY KORPORATSIYALAR.....	32
Rafiqov Abror Baxtiyor o'g'li, Narzullayev Elmurod Shuxrat o'g'li	
OMBORXONALARNI BOSHQARISHDA RFID TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISHNI AFZALLIKLARI.....	36
Mirkamolov Mirsardor Mirxamdam o'g'li, Yuldashev Abduhakim Abdukarimovich	
STARTAPLAR VA KICHIK BIZNESNING IQTISODIY O'SISH VA RIVOJLANISH JARAYONLARIDAGI ROLI.....	41
Abdumajidova Muxlisa Alisher qizi, Umarova Mukaddas Abbasovna	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY SUG'URTA TIZIMIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI XORIJ TAJRIBASI ASOSIDA QO'LLASH ISTIQBOLLARI	46
Sobirova Ozoda Rustamovna, Safarov Javohir Ismoilovich	
IQTISODIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHDA MILLIY TO'LOV TIZIMLARINING ELEKTRON TIJORATDAGI AHAMIYATI.....	50
Teshayev Sayimbek Anvarovich, Tashmuxeamedova Yayra Atxamovna	
CHANGES IN PULSE RATE IN BLOOD VESSELS DURING PHYSICAL EXERCISE	56
Pirnazarov Elchin Anvar o'g'li, Yoldasheva Roila Jumaevna	
JAHON IQTISODIYOTIDA GLOBAL XAVFSIZLIK VA IQTISODIY BARQARORLIK	61
Qayumov Sobit Obid o'g'li, Xasanov Nodir Erkinovich	
LABOR RESOURCES – THE MAIN FACTOR OF NATIONAL DEVELOPMENT.....	68
Qurbanov Tolmasjon Namoz ugli, Mustafoyev Golib Sultonmurodovich	
ISTE'MOLCHI TANLOVI VA NAFLILIK NAZARIYASINI ILMIY ASOSLARI.....	75
Q.Abdukarimov, M.Keldibekova, F.Umarov	
KORXONALARDA RAQAMLI MARKETINGDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH	80
Tumaris Nietullaeva, Alimxodjayeva Nargiza Elshodovna	
OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINING INSON VA JAMIYAT HAYOTIDAGI TA'SIRI HAMDA AXBOROT XURUJLARI.....	87
Kodirov Ozodbek, F.Umarov	
QURILISH MATERIALLARI SANOATIGA KIRITILAYOTGAN INVESTITSIYALAR TAHLILI VA TARMOQNING MAMLAKAT EKSPORTIDAGI O'RNI.....	93
G'ulomiddinov Bobobek Sardorjon o'g'li, G'ulamov Ilhom Akramovich	



QURILISH MATERIALLARI SANOATIGA KIRITILAYOTGAN INVESTITSİYALAR TAHLILI VA TARMOQNING MAMLAKAT EKSPORTIDAGI O'RNINI



G'ulomiddinov Bobobek Sardorjon o'g'li
TMC instituti "Iqtisodiyot" fakulteti 4-bosqich talabasi



Ilmiy rahbar:
G'ulamov Ilhom Akramovich
TMC instituti katta o'qituvchisi
Elektron pochta: superhero92@list.ru

Annotatsiya: Maqolada qurilish materiallari sanoatiga kiritilayotgan investitsiyalar miqdori va ularning tarmoq rivojlanishiga ta'siri tahlil qilinadi. Investitsiyalar hisobiga ishlab chiqarish quvvatlari yangilanadi, texnologiyalar modernizatsiya qilinadi va mahsulot sifati oshadi. Shuningdek, tarmoq mahsulotlarining tashqi bozorlarga chiqishi, eksport hajmini oshirishdagi ahamiyati va iqtisodiy samarasi ko'rib chiqiladi. Umuman olganda, maqola sanoat tarmog'ini rivojlantirishda investitsiya siyosatining muhim o'rnini ochib beradi.

Kalit so'zlar: qurilish materiallari sanoati, investitsiyalar, modernizatsiya, eksport, iqtisodiy samara, tashqi bozor.

Abstract: The article analyzes the volume of investments directed to the construction materials industry and their impact on sectoral development. Investments support the renewal of production capacities, modernization of technologies, and improvement of product quality. The study also examines the entry of industry products into foreign markets, their importance in increasing export volumes, and their economic efficiency. Overall, the article highlights the crucial role of investment policy in the development of the industry.

Key words: construction materials industry, investments, modernization, export, economic efficiency, foreign market.

Аннотация: В статье анализируются объёмы инвестиций, направляемых в промышленность строительных материалов, и их влияние на развитие отрасли. За счёт инвестиций обновляются производственные мощности, модернизируются технологии и повышается качество продукции. Также рассматривается выход отраслевой продукции на внешние рынки, её значение в увеличении экспортного объёма и экономическая эффективность. В целом статья раскрывает важную роль инвестиционной политики в развитии отрасли.

Ключевые слова: промышленность строительных материалов, инвестиции, модернизация, экспорт, экономическая эффективность, внешний рынок.

KIRISH

So'nggi yillarda O'zbekistonda sanoat tarmoqlarini modernizatsiya qilish, iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish hamda ishlab chiqarishni chuqur diversifikatsiya qilish borasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu jarayonning muhim yo'nalishlaridan biri qurilish materiallari sanoatini transformatsiya qilish,



zamonaviy texnologiyalar asosida energiya tejamkor, ekologik xavfsiz va import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirishdan iboratdir. Mamlakat investitsiya siyosatining izchil takomillashuvi, chet ellik investorlar uchun yaratilayotgan qulay shart-sharoitlar hamda sanoat zonalarini infratuzilmasining rivojlanishi natijasida so'hada yirik loyihalarni amalga oshirish imkoniyati yanada kengaydi.

2023–2024-yillarda Investitsiya dasturi doirasida qurilish materiallari ishlab chiqarishga yo'naltirilgan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmining sezilarli oshishi, yangi ishlab chiqarish quvvatlarining ishga tushirilishi va mahalliy xomashyo bazasidan samarali foydalanilishi sohaning barqaror rivojlanayotganligini ko'rsatadi. Natijada sement, float oyna, DSP, mineral plitalar, gipsokarton, linoleum, burama mix, ohaktoshdan qog'oz, kvars asosidagi issiqlik izolyatsiya materiallari kabi mahsulotlar bo'yicha yirik ishlab chiqarish quvvatlari shakllandi. Shu bilan birga, Andijon viloyati kabi hududlarda ham zamonaviy korxonalar sonining ortishi, foydali qazilmalar konlarining o'zlashtirilishi va investorlar faol ishtiroki tarmoq rivojining hududiy jihatdan ham kengayib borayotganini tasdiqlaydi.

Yangi turdagi innovatsion qurilish materiallariga bo'lgan talabning o'sib borishi qurilish jarayonlarida energiya samaradorligi, ekologik standartlar va texnologik yangiliklarga e'tiborning kuchayishi bilan izohlanadi. Xususan, yorug'lik o'tkazuvchan beton, smart glass, shishali cherepitsa, elastik o'zini-o'zi tiklaydigan beton, kompozit issiqlik izolyatsiyasi, kvarsvinilli pollar kabi innovatsion materiallar bozor talabi va global texnologik tendensiyalar asosida o'z mavqeini mustahkamlamoqda. Ushbu mahsulotlarni ishlab chiqarishda ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan hamkorlikni kuchaytirish, texnologik transfer jarayonlarini faollashtirish va raqamli nazorat tizimlarini joriy etish soha samaradorligini oshirishning asosiy omillaridan biri bo'lib qolmoqda.

Mazkur maqolada qurilish materiallari sanoatida amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalari, ishlab chiqarish quvvatlarining o'sishi, innovatsion mahsulotlar dinamikasi, hududlar kesimidagi natijalar hamda kelgusidagi ustuvor vazifalar tahlil etiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Qurilish materiallari sanoatiga kiritilayotgan investitsiyalar, tarmoqning innovatsion transformatsiyasi va eksport salohiyatining oshishi bo'yicha ilmiy izlanishlar xalqaro miqyosda ham, mintaqaviy iqtisodiyotlar kesimida ham keng yoritilgan. D. Pearce, R. Turner va I. Goldin tadqiqotlarida sanoat tarmoqlarida investitsion oqimlarning samaradorligi, resurslardan oqilona foydalanish hamda ekologik talablarning kuchayishi qurilish materiallari ishlab chiqarish sohasini modernizatsiya qilish zarurligi bilan izohlanadi. Ushbu mualliflar investitsiya siyosatini barqaror iqtisodiyotning asosiy determinanti sifatida baholab, xususan qurilish materiallari bozorida import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarishni milliy iqtisodiy xavfsizlik tarkibiy qismi sifatida ko'rsatadi.

M. Porter o'zining raqobat ustunliklari haqidagi konsepsiyasida sanoat tarmoqlarida texnologik yangilanishlar, kapital qo'yilmalarning hajmi va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish eksport salohiyatini shakllantiruvchi asosiy omillar ekanligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, qurilish materiallari eksporti kengayib borayotgan mamlakatlar yuqori qo'shimcha qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarishga o'tish orqali xalqaro bozorlar tizimida o'z mavqeini mustahkamlaydi. Ushbu nuqtayi nazardan, texnologik modernizatsiya va chet el investitsiyalarini jalb qilish O'zbekiston kabi rivojlanayotgan mamlakatlar uchun muhim strategik yo'nalish sifatida namoyon bo'ladi.

J. Dunning tomonidan ishlab chiqilgan OLI-paradigma ham sohada investitsiyalar oqimini tahlil qilishda keng qo'llanadi. U chet ellik investorlarning qarorlariga ta'sir qiluvchi omillar sifatida bozor salohiyati, xomashyo resurslari, logistika va infratuzilmaviy imkoniyatlar, texnologik integratsiya darajasini belgilab beradi. Qurilish materiallari ishlab chiqarish tarmoqlarida esa aynan xomashyo zaxiralari va energiya samarador texnologiyalarning joriy etilishi investitsiya oqimlarining barqarorligini kuchaytiruvchi omillar sifatida qayd etiladi.

Jahon banki va Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki tadqiqotlarida qurilish materiallari sanoati ko'plab davlatlarda iqtisodiy o'sish drayveri sifatida talqin qilinadi. Ayniqsa, urbanizatsiya jarayoni tez kechayotgan Osiyo mamlakatlarida sement, gazobeton, float oyna, gipsokarton kabi mahsulotlar ishlab chiqarish hajmining oshishi bilan bir qatorda, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning oqimi ham sezilarli darajada kengayayotgani ta'kidlanadi. Bu holat eksport tarkibining diversifikatsiyasiga, yangi ish o'rinlarining yaratilishiga va mintaqaviy sanoat klasterlarining shakllanishiga olib keladi.

Mahalliy olimlar tomonidan olib borilgan izlanishlarda ham qurilish materiallari sanoatini rivojlantirishning investitsion omillari keng o'rganilgan. A. Abdurahmonov sanoat korxonalarining modernizatsiyasi, innovatsion texnologiyalarning ishlab chiqarishga tatbiq etilishi va eksport hajmini oshirish uchun zarur bo'lgan institutsional islohotlarni asoslab bergan. U investitsiya siyosatini hududlarning xomashyo salohiyati bilan uyg'unlashtirish zarurligini alohida ko'rsatadi. B. Soliyev esa qurilish materiallari ishlab chiqarish bozorida talab va taklif nisbatini, investitsiya resurslaridan samarali foydalanish metodologiyasini va eksportning raqobatbardoshligini belgilovchi omillarni tahlil qilib, tarmoqda innovatsion mahsulotlar ulushining oshishi investitsiya faolligini yanada kuchaytirishini ta'kidlaydi.



Shuningdek, Xalqaro sement assotsiatsiyasi va Global Construction Review ma'lumotlarida sement va gipsokarton ishlab chiqarish bozorida energiya tejamkor texnologiyalarning keng qo'llanilishi, ishlab chiqarish jarayonini raqamlashtirish va uglerod izini kamaytirish amaliyotlarining jadal kengaygani qayd etiladi. Bu tendensiyalar eksport bozorlari talablari bilan hamohang bo'lib, O'zbekiston korxonalarining Yevropa va Osiyo bozorlariga eksport salohiyatini oshirish imkoniyatlarini yaratadi.

Mazkur ilmiy manbalar va tadqiqotlar qurilish materiallari sanoatiga kiritilayotgan investitsiyalarning tarmoq rivoji, texnologik modernizatsiya jarayonlari, innovatsion mahsulot ishlab chiqarish va eksport ko'rsatkichlarining barqaror o'sishiga bevosita ta'sir ko'rsatishini ko'rsatadi. Shu bilan birga, xalqaro investitsion amaliyotlar bilan uyg'unlashgan holda, milliy ishlab chiqarish quvvatlarining kengayishi O'zbekiston iqtisodiyoti uchun strategik ahamiyatga ega ekanini tasdiqlaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi qurilish materiallari sanoatiga yo'naltirilgan investitsiyalar, ishlab chiqarish hajmlari, eksport dinamikasi va hududlar kesimidagi quvvatlar bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlarni yig'ish, O'zbekiston Respublikasi investitsiya dasturlari hamda xalqaro tashkilotlarning ochiq ma'lumotlar bazalaridan foydalanishga asoslandi. Olingan ma'lumotlar trend tahlili, qiyosiy tahlil va tarkibiy baholash usullari orqali qayta ishlanib, investitsiyalarning tarmoqqa ta'siri aniqlashtirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

2023-yilda Investitsiya dasturiga ko'ra 215,1 mln dollarlik to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar o'zlashtirilib, qurilish materiallari sanoatiga mahalliy va xorijiy investorlarni keng jalb qilish orqali ko'plab yirik loyihalar amalga oshirilmoqda. Buning natijasida mamlakatimizda sifatli, import o'rnini bosuvchi, yangi turdagi energiya tejamkor qurilish materiallari ishlab chiqarish yo'lga qo'yilmoqda.

Olib borilgan sa'yi-harakatlar natijasida 2024-yilda soha bo'yicha 1 mlrd 104 mln dollarlik, shu jumladan 912 mln dollarlik to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar o'zlashtirildi. Shundan, Uyushma bo'yicha Investitsiya dasturiga asosan 41 ta loyiha doirasida 327,6 mln dollarlik mablag'lar, shu jumladan 215,1 mln dollar to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar o'zlashtirildi. E'tiborlisi, 2024-yilda qiymati 284,6 mln dollarlik 12 ta loyiha ishga tushirildi, natijada 1134 ta yangi ish o'rinlari tashkil etildi.

Jumladan, 2,4 mln tonna sement, 22 mln kv metr float oyna, 150 ming kub metr DSP, 20 ming tonna elektrod, 6 ming tonna burama mix, 6 ming tonna ohaktoshdan qog'oz, 15 mln kv metr gipsokarton, 2,5 mln kv metr linoleum, 30 ming tonna kvarts qumidan issiqlik saqlovchi mineral plitalar ishlab chiqarish kabi quvvatlar yaratildi (1-rasm).



1-rasm. Respublikamizdagi qurilish materiallari ishlab chiqarish, investitsiya, eksport va mahalliyashtirish bo'yicha joriy holat ko'rsatkichlari¹

1 "O'zsanoatqurilishmateriallari" uyushmasi iqtisodiy tahlil va prognozlashtirish boshqarmasi ma'lumotlari.



Xususan, "Ohangaronsement" AJda sement ishlab chiqarishning yangi liniyasi, "Kvars" AJda float oyna, "Surxon KSP Grand" MCHJda qamishdan DSP, "Angren Insuleyshn" MCHJ XKda kvars qumidan mineral plitalari va "Knauf Gips Fergana" MCHJ XKda gipsokarton ishlab chiqarish loyihalari ishga tushirildi. Respublikamizda 2022-yilda investitsiya yo'nalishi bo'yicha ham izchil ishlar amalga oshiriladi. Xususan, tarmoq bo'yicha jami 1 mlrd 400 mln dollarlik, shu jumladan 1 mlrd 160 mln dollarlik to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni o'zlashtirish rejalashtirilmoqda. Shundan, Uyushma bo'yicha Investitsiya dasturiga asosan 369,4 mln dollarlik 12 ta loyihani ishga tushirish va 1035 ta yangi ish o'rinlari tashkil etish ko'zda tutilgan. Natijada, 1,8 mln tonna sement klunker, 29 mln kv metr keramik plitka, 1,1 mln tonna sement, 850 ming kub metr gazobeton bloklari, 300 ming kv metr marmar kompozit plitalar, 3,5 ming tonna burama mixlar, 50 ming tonna temir-beton buyumlari va asfalt, 2,8 mln kv metr keramik plitka va frizlar ishlab chiqarish bo'yicha quvvatlar yaratiladi.

Jumladan, "Qizilqumsement" AJda sement klunker, "Karakalpaksement" MCHJda sement, "Akfa Building Materials" MCHJ va "Yevraziya Gaz Beton" MCHJlarda gazobeton bloklari, "Raych Rav" MCHJda keramik plita va frizlar, "Chirchiq Asfalt Beton Servis" MCHJda temir-beton va asfalt, "Gazgan Marble Grupp" MCHJda marmar jinslaridan kompozit materiallar ishlab chiqarish kabi loyihalar ishga tushiriladi. Shu bilan birga, 2022-yilda 600 mln dollarlik, jumladan 340 ming tonna sement (20 mln dollar), 80 mln dollarlik PVX profil, truba va plastmassa mahsulotlar, 30 mln dollarlik quruq qurilish qorishmalari va sement mahsulotlari, 15 mln dollarlik qurilish xizmatlari va boshqa turdagi qurilish materiallari eksporti amalga oshiriladi.

Shu bilan bir qatorda, Respublikamizning Andijon viloyatida ham yildan-yilga qurilish materiallari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan sanoat korxonalari soni ortib bormoqda. Investitsiya loyihalarini amalga oshirish natijasida yangi quvvatlarni yaratish, xorijiy investorlarni sohaga keng jalb qilish va mavjud korxonalarni modernizatsiya qilish orqali sohada yuqori natijalarga erishilmoqda. Raqamlarga e'tibor qaratilsa, hududda 2017–2024-yillarda qurilish materiallari sohasida 195 ta 491,0 mlrd so'mlik loyiha amalga oshirilib, 5494 ta ish o'rinlari yaratilgan. Hozirda viloyatda 430 dan ortiq qurilish materiallari korxonalari mavjud bo'lib, ular tomonidan o'tgan yilda jami 432 mlrd so'mlik 22 dan ziyod asosiy turdagi qurilish materiallari (sement, gazobeton bloklari, ohak, pardozbop toshlar, metallokonstruksiyalar, plastmassa quvurlar va boshqa turdagi qurilish materiallari) ishlab chiqarilgan.

Shuningdek, hududda qurilish materiallari ishlab chiqarish uchun ko'plab xom ashyolar mavjud. Tahlillarga ko'ra, hozirda viloyatda 75 ta tabiiy qazilma koni aniqlangan. Xususan, 305,3 mln tonna sement, 3,4 mln tonna ohak, 63,5 mln kub metr qurilish toshi, 16,5 mln kub metr qum-shag'al aralashmalari va 22 mln kub metr g'isht xom ashyo zaxiralari mavjud. 2020-yilning 1-yanvaridan 2024-yilning 1-yanvar holati bo'yicha viloyat tumanlari kesimida jami 25 ta foydali qazilmalarni qazib olish uchun va 18 ta geologik jihatdan o'rganish uchun tadbirkorlarga tegishli ruxsatnomalar rasmiylashtirilgan (2-rasm).

АМАЛГА ОШИРИЛАЁТГАН ВА ИСТИҚБОЛЛИ ИНВЕСТИЦИЯ ЛОЙИХАЛАРИ

Амалга ошириладиган инвестиция лойиҳалари						Истиқболли лойиҳалар	
Маҳсулот тури	Лойиҳа сон ва қуввати	Ишчи ўрни	Маҳсулот тури	Лойиҳа сон ва қуввати	Ишчи ўрни	45 та лойиҳалар сон	\$ 733 млн лойиҳалар қиймати
Цемент ва цемент маҳсулотлари	31 та 26,9 млн тн	5 625 та	Керамогранит	4 та 12,5 млн кв м	650 та	Шу жумладан асосан	
Қурилиш ойнаси	4 та 72,2 млн кв м	2 650 та	Керамик плитка	13 та 36,0 млн кв м	1 205 та	2,25 млн. тн. кварц қуми захираси	\$ 172 млн. лойиҳа қиймати 28 млн. кв. м. ойна 2 та лойиҳа
Базальт маҳсулотлари	9 та 750 минг тн	1 045 та	Пардозбop тош	37 та 1,9 млн кв м	1 115 та	195,2 млн. тн. оқактош захираси	\$ 160 млн. лойиҳа қиймати 9,2 млн. тн. цемент 2 та лойиҳа
Газобетон блоклари	61 та 4,5 млн куб м	2 271 та	Темир-бетон буюмлар	249 та 18,6 млн куб м	4 581 та	56,5 млн. тн. гипс тоши захираси	\$ 121 млн. лойиҳа қиймати 4 млн. кв. м. гипсокартон 570 минг тн гипс. 13 та лойиҳа
Гипсокартон ва гипс маҳсулотлари	21 та 85 млн кв м	1 530 та	Пластик қуурлар	55 та 183 минг тн	1 590 та	15,9 млн. тн. базальт тоши захираси	\$ 88 млн. лойиҳа қиймати 80 минг тн плита ва сендвич паннеллар 2 та лойиҳа
Қуруқ қурилиш эралашмалари	49 та 843 минг тн	1 273 та	ДСП, ЛСП	7 та 395 минг куб м	3 560 та	2,25 млн. тн. керамик г'isht захираси	\$ 43,5 млн. лойиҳа қиймати 110 млн. дона г'isht 6 та лойиҳа

2-rasm. Respublikamizdagi amalga oshirilayotgan istiqbolli investitsiya loyihalari ko'rsatkichlari²

Umuman olganda, ilg'or xorij tajribasi o'rganilganda qurilish, kapital ta'mirlash va dizaynerlik ishlarida yorug'lik o'tkazuvchan beton (прозрачный бетон), yangi turdagi qurilish oynasi (smart glass), shishali cherepitsa

2 "O'z sanoat qurilish materiallari" uyushmasi Tashqi iqtisodiy faoliyat, eksportni rivojlantirish, mahalliy lashtirish, importni optimallashtirish va logistika boshqarmasi ma'lumotlari.



(стеклянный черепица), manzarali harakatlanuvchi pol qoplamalari (“живая” плитка), xameleon g'isht, guruch somonidan MDF plitalar, o'zini-o'zi tiklaydigan egiluvchan beton (эластичный самовосстанавливающийся бетон), тёплые обои, ko'pikli devor qoplamalari (вспененный сайдинг), kvartsvinilli pol qoplamasi (кварцвиниловые полы), beton quyish uchun plastik qolip (пластиковая опалубка) va kompozit suyuq issiqlik izolyatsiyalash qoplamalaridan (жидкие теплоизоляционные материалы) keng foydalanilmoqda. Ushbu yangi turdagi innovatsion qurilish materiallarini ishlab chiqarish jarayonlariga ilm-fan yutuqlarini joriy qilish maqsadida ilmiy-tadqiqot va oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda ishlar olib borilmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa sifatida aytish mumkinki, qurilish materiallari sanoatiga kiritilayotgan investitsiyalar hajmining ortishi, yangi ishlab chiqarish quvvatlarining ishga tushirilishi va innovatsion texnologiyalarning joriy etilishi tarmoqning barqaror rivojlanishini ta'minlamoqda. Import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ulushining oshishi, mahalliy xomashyo resurslaridan samarali foydalanish hamda xorijiy investorlar faolligining kuchayishi ishlab chiqarishning diversifikatsiyasiga va ichki bozor barqarorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Bu jarayonlar sanoatning umumiy raqobatbardoshligini oshirish bilan bir qatorda, energiya tejamkor va ekologik xavfsiz qurilish materiallariga bo'lgan talabni qondirish imkoniyatlarini ham kengaytirmoqda.

Shuningdek, tarmoqning eksport salohiyatining bosqichma-bosqich mustahkamlanishi, float oyna, sement, gazobeton, gipsokarton, mineral plitalar kabi mahsulotlar bo'yicha yangi bozorlar ochilayotgani O'zbekistonning xalqaro iqtisodiy integratsiyasini chuqurlashtirmoqda. Hududlarda xomashyo konlarining o'zlashtirilishi, yangi ishlab chiqarish obyektlarining ishga tushishi va korxonalar modernizatsiyasiga qaratilgan tashabbuslarning kengayishi davlat investitsiya siyosati samaradorligini namoyon etmoqda. Kelgusida ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan hamkorlikni kuchaytirish, texnologik innovatsiyalarni joriy etish va eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarishni kengaytirish tarmoqning ustuvor yo'nalishlari sifatida dolzarb bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. “Ўзсаноатқурилишматериаллари” уюшмаси қошидаги Тармоқ илмий-техник кенгаши маълумотлари.
2. “Ўзсаноатқурилишматериаллари” уюшмаси ва “ЎзқурилишматериалЛТИ” МЧЖ илмий-тадқиқот ва инжиниринг маркази маълумотлари.
3. “Инновацион қурилиш материаллари ишлаб чиқаришни ривожлантиришнинг долзарб муаммолари ва ечимлари” мавзусидаги Республика анжумани. “Ўзсаноатқурилишматериаллари” уюшмаси. Тошкент. 2020 йил 25 декабрь. Тошкент 2021 йил.
4. Министерство Строительства Республики Узбекистан, Ташкентский архитектурно-строительный институт “Инновационные технологии в производстве строительных материалов и конструкций” Материалы Международного симпозиума 27-28 ноября 2020 г.
5. Porter M. The Competitive Advantage of Nations. – London: Macmillan Press, 1990.
6. Dunning J. International Production and the Multinational Enterprise. – London: Routledge, 1981.
7. Pearce D., Turner R. Economics of Natural Resources and the Environment. – New York: Johns Hopkins Univ. Press, 1990.
8. Goldin I., Reinert K. Globalization for Development. – Oxford: Oxford University Press, 2006.
9. World Bank. Industrial Competitiveness Report. – Washington D.C.: World Bank Publications, 2020.
10. International Cement Association. Global Cement Report. – London: ICR Publishing, 2023.
11. European Bank for Reconstruction and Development. Transition Report. – London: EBRD, 2022.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

8-Maxsus son. Bakalavr talabalarining maqolalari to'plami

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>